

**O'QUVCHI VA TALABA YOSHLARNING VATANPARVARLIK
TARBIYASINING DOLZARB MASALALARI****Tilavoldiyev Shaxobidin Xoldarovich***Farg'ona davlat universiteti**Harbiy ta'lim fakulteti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim o'quv yurtlari va oliy ta'lim tizimida o'quvchi va talaba yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasini maqsad va vazifalari, tashkillash va uni olib borish to'g'risida so'z yuritiladi.*

Tayanch so'zlar: *ta'lim va tarbiya, ma'naviy yetuk, harbiy-vatanparvarlik, xuquqiy madaniyat, mas'uliyat, mafkuraviy immunitet, intellektual salohiyat, ijtimoiy-siyosiy, milliy meros, milliy va umumbashariy qadriyatlar.*

Bugungi kunda davlatimiz o'z rivojlanish tarixining muhim bosqichlarida turibdi. Davlatimiz va jamiyatimiz xayotining barcha sohalarida tarixiy o'zgarishlar jarayoni davom etmoqda. Shu jumladan bunday tub o'zgarishlar, ya'ni isloxotlar, ta'lim va tarbiya jarayonida ham faol tarzda amalga oshirilmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning xuquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 8 noyabrdagi 591-sonli qaroriga asosan, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi Nizomi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023 yil 27 iyundagi 267-sonli qaroriga asosan mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalash masalasiga jismonan va manan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit talim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jaxondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston xayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga aloxida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Vazirlar mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham aynan vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, har qanday mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda, eng avvalo, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari borasida jiddiy izlanishlar talab qilinadi. Bu esa mamlakatda yoshlarning vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlashda istiqboldagi maqsadlarga erishuvga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasida yoshlarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'alarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimini yaratish, ularning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish, yoshlarimizga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas'uliyat, fidoyilikni oshirish, milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etishni tizimli asosda yo'lga qo'yish belgilab olingan. Shunga ko'ra, yoshlarimizda "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!" degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish, dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an'alarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini rivojlantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek, yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim to'g'risidagi nizomda yoshlarda insonparvarlik ruhiyatini shakllantirish, ularning tarbiyasiga milliy vatanparvarlik g'oyasi asosida umuminsoniy qadriyatlarni hamda Vatanga, jamiyatga, oilaga va atrof-muhitga muhabbatni singdirish xaqida so'z yuritiladi.

Bizning fikrimizcha, o'quvchi va talaba yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalari quyidagilar bo'lishi kerak:

Strategik vazifalar:

- o'z Vataniga va xalqiga xizmat qilish;
- O'zbekiston xalqlarining madaniy merosi, insonlar va mamlakat tabiatiga xurmat bilan munosabatda bo'lish;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, uning safiga turishga tayyor bo'lish va Vatanni himoya qilish uchun o'z jonini ham ayamasklik;
- insonparvarlik g'oyalarini tarbiyalash;
- umuminsoniy odob va axloq tamoyillarini o'zlashtirish;
- o'z xalqining odob va axloq an'alarini o'zlashtirish va qo'llash malakalariga ega bo'lish;
- o'quvchi va talabalarining xuquqiy ma'daniyatini shakllantirish, fuqarolarning xuquqiy munosabatlarini rivojlantirish va yaratish;

- boshqa davlatlar va xalqlarning fuqarolari va vakillariga xurmat va baynalminal ruhida bo'lish tajribalariga ega bo'lish;
 - o'z Vatani, ota-onalari va kelajak avlod oldidagi burch va majburiyatlarini his etish. Bu tuyg'u barcha hislar, fikrlar va faoliyatning ichki asosi bo'lishi kerak;
 - o'z Vataniga xaqiqiy muxabbatni shakllantirish, uning rivoji va farovonligi uchun mehnat qilishga intilish;
 - jamoaviy tuyg'ularni shakllantirish va jamoaviy hayot malakalarini singdirish;
 - o'z Vatani va xalqining jangovar va mehnat shuxratini asrash, boyitish va uning an'analariga rioya etish;
 - millatchilik, ayirmachilik, terrorchilik va boshqa millat va elatlarga bexurmat bo'lishning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashish; ularning o'ziga xos ma'daniyatini xurmat qilish;
 - vatanparvarlikni mahalliy va boshqacha tor doirada tushunishdan saqlanish;
 - milliy o'zlikni anglash, o'zbek tiliga davlat tili sifatida va o'z ona tiliga xurmat ruhida bo'lish;
- Joriy vazifalar:
- o'z Vatanini himoya qilish, o'zining fuqarolik burchi va majburiyatlarini bajarish;
 - o'zining o'qishiga va bo'lajak kasbini egallashga mas'uliyat bilan yondashish;
 - o'z davlati tarixi va geografiyasini qunt bilan o'rganish;
 - O'zbekiston xalqlarining ma'daniy meroslarini chuqur o'rganish, asrash, tiklash va Vatan farovonligi uchun ma'daniy boyliklarni yanada rivojlantirish;
 - O'zbekiston fuqarolarining xuquq va majburiyatlarini o'rganish, o'z xalqining odob va axloq normalari va an'analarini o'zlashtirish va boyitish;
 - o'quvchi va talabalarda mustaqillik, tinchlik, demokratiya va ijtimoiy rivojlanish uchun kurashishda umumiy birlik hislarini shakllantirish;
 - o'quvchi va talabalarining ongi va yurish-turishini o'z Vatani va xalqi oldidagi burchiga bo'ysundirish ko'nikmalarini shakllantirish;
 - xar bir o'quvchi va talabada davlat, xalq va o'z jamoasi oldidagi shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirish;
 - o'quvchi va talabalarda O'zbekiston va uning xalqi farovonligi uchun amaliy faoliyatda faol qatnashish ehtiyojini rivojlantirish;
 - O'zbekistonni har tomonlama rivojlanishi yo'lida talabalarining ijodiy faoliyati uchun barcha sharoitlarni yaratish;
 - o'quvchi va talabalarda mehnatsevarlik, onglilik, intizomlilik va mas'uliyat hissini va davlat, jamiyat va har bir fuqaroning manfaatiga hurmat tuyg'usini shakllantirish.
 - O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ravnaqi uchun faol xizmat qilish;
 - kundalik hayot faoliyatida har bir insonning milliy tuyg'u va qadriyatlarini xurmat qilish;
 - bugungi va kelajak avlod uchun tarix va tabiat obidalarini saqlash va tiklash ishlariga o'z hissasini qo'shish;
 - baynalminallik an'analarini yangilash va boyitish;
 - o'zi ta'lim olayotgan o'quv yurtining tarixiy merosini yangi yutuqlar va ma'naviy qadriyatlar bilan yanada boyitish;

- o'quvchi va talabalar tomonidan o'z majburiyatlari va mehnat intizomining xar qanday ko'rinishdagi buzilishlarga toqatsizlik muhitini yaratish;
- ta'lim muassasasi o'qituvchilari va tarbiyachilarining ta'lim va tarbiya bo'yicha talablarining bir xil bo'lishi;
- o'quvchi va talabalarining kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan ijodkorlikni rivojlantirish uchun ularni turli xil shakldagi faoliyat turlariga jalb etish;
- o'quvchi va talabalarda millatlararo muomala ma'daniyatini shakllantirish;
- o'quvchi va talabalarda mamlakatning iqtisodiy va mudofaa qudratini mustahkamlashda o'z kasbiy faoliyati xaqida tasavvurga ega bo'lish ko'nikmasini shakllantirish;
- o'quvchi va talabalarda umummilliy faxrlanish tuyg'usini mustahkamlash;
- turli xil millat vakillari bo'lgan o'quvchi va talabalarining o'zaro faoliyati uchun zarur bo'lgan o'rtoqlik va o'zaro yordamga asoslangan ijobiy muhitni yaratish;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy muammolarining dolzarbliligi jamiyatimizning yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasiga bo'lgan ehtiyojga asoslangan bo'lib, u quyidagi sabablar bilan alohida ahamiyat kasb etadi:

- yosh avlod tomonidan axborot olish imkoniyatini oshishi;
- demoratik islohotlar jarayoni va ko'ppartiyaviy tizimni tashkil topishi yosh avlod tomonidan vatanparvarlik mohiyatini to'g'ri tushunishida o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltirishida;
- katta avlod o'tgan vatanparvarlik tarbiyasi maktabini zamonaviy yosh avlod tomonidan o'tilmaganligi;
- barcha yoshlar guruhlarini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan qamrab olinmaganligi (uyushmagan yoshlar guruhlari);
- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining xududiy tarqoqligi;
- o'quv yurtlarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha o'quv-moddiy bazaning yetishmasligi;
- o'quv yurtlarini tavsiya etilgan o'quv qo'llanmalari va o'quv jihozlari bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi;
- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi masalalarida o'quv yurtlariga biriktirilgan harbiy bilim yurtlari va harbiy qismlar bilan o'zaro hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Qurolli Kuchlarni yoshlar o'rtasidagi obro'sini yanada oshirish;
- barcha markaziy matbuot-axborot vositalari va telekanallarda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha alohida sahifa va ko'rsatuvlar tashkil qilish;
- davlat tarixini vatanparvarlik tarbiyasiga bog'lab o'qitilishiga erishish;
- talabalar va o'quvchilarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishidagi faoliyatidan keng foydalanish va uni targ'ib qilish;
- ta'lim muassasalarida ko'ngillilar (volonterlik) xarakatlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha markaz tarmoqlarini yaratish;

- chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha o'quv dasturini 136 o'quv soatiga yetkazish va dasturni harbiy- amaliy yo'nalishda bo'lishiga erishish.

Akademik Erkin Yusupov aytganidek, vatanparvarlik tug'ma, irsiy hususiyat emas, balki muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatda, ta'lim tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviyatdir. U esa o'z navbatida insonda ilmiy vatanparvarlik, axloqiy teranlik, xuquqiy savodxonlik, burch, vatanparvarlik mas'uliyatini chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoiylilik, mehnatsevarlik, sadoqatlilik singari fazilatlarni shakllantiradi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida aytib o'tilgan chora-tadbirlarga ijodiy yondoshilib, ularni to'g'ri tashkillash va amalga oshirish o'quvchi va talaba yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini yanada yuksak bosqichlarga olib chiqishga imkon yaratar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash Konsepsiyasi, 2018 yil, №140 sonli qaror.
3. Sh. Tilavoldiyev, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi», uslubiy qo'llanma, Farg'ona, 2018 yil.
4. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov, «Vatan tuyg'usi», T, 1996 y.
5. «Vatan himoyasi - muqaddas burch» T. Harbiy nashriyot. 2000 y.
6. Sh.Tilavoldiyev, «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari», o'quv darsligi, Farg'ona, 2023 y.